KIMYO

UDK 61.616.62-003.7 DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss4/a82

BUYRAK VA SIYDIK PUFAGI KASALLIKLARIDA ISHLATILADIGAN AYRIM SINTETIK DORI VOSITALARINING KIMYOVIY TARKIBI

CHEMICAL COMPOSITION OF CERTAIN SYNTHETIC DRUGS USED IN KIDNEY AND URINARY BLADDER DISEASES

ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ НЕКОТОРЫХ СИНТЕТИЧЕСКИХ ЛЕКАРСТВЕННЫХ ПРЕПАРАТОВ, ПРИМЕНЯЕМЫХ ПРИ ЛЕЧЕНИИ ЗАБОЛЕВАНИЙ ПОЧЕК И МОЧЕВОГО ПУЗЫРЯ

Asqarov Ibrohimjon Rahmonovich[1], Mo‘minjonov Mirjalol Muqimjon o‘g‘li[2] Kamalova Zulayho Abdurahimovna[3]

[1]Asqarov Ibrohimjon Rahmonovich – O‘zbekiston "TABOBAT" Akademiyasi raisi, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan ixtirochi, kimyo fanlari doktori,professor

[2]Mo‘minjonov Mirjalol Muqimjon o‘g‘li – O‘zbekiston "TABOBAT" Akademiyasi raisi o‘rinbosari kimyo fanlari doktori

[3]Kamalova Zulayho Abdurahimovna – Andijon davlat pedagogika instituti, tabiiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada buyrak va siydik pufagi kasalliklarini davolashda ishlatiladigan Torasemidum, Uralit-U, 5-NOK, Armideks, Nitroksolin-50, Siprinol va boshqa sintetik dori vositalari kimyoviy tarkibi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, buyrak va siydik pufagi tizimi kasalliklarini sintetik dori vositalarining o‘rniga tabiiy, Shifoi bosim, Nishifo, Asdavo, Askalsiy, Antivir 101 kabi oziq-ovqat qo‘shilmalarini tartibli ravishda iste`mol qilish davolashda yaxshi samara berishi tavsiya qilingan.

Аннотация

В статье приведены сведения о синтетических лекарственных препаратах Torasemidum, Uralit-U, 5-NOK, Armideks, Nitroksolin-50, Siprinolu о других, которые приеняются при лечении заболевений почек и мочевого пузыря. А также в статье рекомендовано, что правильное, последавательное употребление вместо синтетических лекарственных препаратов заболеваний почек и системы мочевого пузыря естественных пищевых добавок как Shifoi bosim, Nishifo, Asdavo, Askalsiy, Antivir 101даёт хороший результат.

Abstract

Information about chemical composition of Torasemidum, Uralyt-U, 5-NOK, Arimidex, Nitroxoline-50, Ciprinol and other synthetic drugs used to treat the kidney and the urinary bladder ailments were given in this article.Furthermore, it is recommended that orderly consuming natural, food additives such as Shifoi bosim, Nishifo, Asdavo, Askalsiy, Antivir 101 instead of synthetic drugs that to treat kidney and bladder system disesases is effective.

Kalit so‘zlar. *Sintetik dori, Kimyoviy tarkib, allergiya, terapevtik samarador, dorivor o‘simlik,oziq-ovqat qo‘shilmalari.*

Key words. *Synthetic drug, chemical composition, allergy, therapeutic effective, medicinal plant, food additives.*

Ключевые слова: *синтетическое лекарство, химический состав, аллергия, терапевтическая эффективность (полезность), лекарственное растение, пищевые добавки.*

KIRISH

Tabiiy o‘simlik xomashyolari asosida turli biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalari ishlab chiqish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki, bunday preparatlar sintetik kimyoviy dori vositalariga nisbatan zaharsizligi bo‘yicha yuqori afzalliklarga ega [1].

So‘ngi yillarda dorivor o‘simliklardan ajratib olingan biologik faol birikmalar asosida tibbiyot uchun dori vositalar olish bo‘yicha tadqiqotlar rivojlanmoqda. Bu dorivor o‘simliklar asosida olingan vositalarning yuqori biomoslanuvchanligiga, organizmda allergiya chaqirmasligi, zararli ta'sirining kamligi va terapevtik samaradorligiga bog‘liq [2].

Organizm faoliyatini boshqarishda buyrakning ahamiyati juda katta. Buyrak organizmda parchalanish mahsulotlarini, ortiqcha suv, tuzlarni, ba’zi dorilarni chiqarib tashlaydi. Bu a’zo suv-tuz

almashinuvida, kislota asosiy muvozanatini boshqarishda, osmoregulyatsiyada faol ishtirok etadi, ichki muhit barqarorligini ta’minlaydi. Endokrin faoliyati rening, eritropoetit, urokinaza moddalarini ishlab chiqarishda namoyon bo‘ladi. Buyrakning oqsil, yog‘, uglevod, mineral tuzlar almashinuvida faol ishtirok etishi aniqlangan. Yangi tug‘ilgan bolalarning buyragida ona sutining oqsillari parchalanadi. Buyrak, siydik naylari, siydik pufagi, siydik chiqaruv kanali siydik ajratish tizimiga kiradi.

Buyrak va siydik pufagi tizimi kasalliklari juda ko‘p va xilma-xil bo‘lib, kasalliklarning ba'zilari yurakni, ayrimlari arteriya yoki venalarni, boshqalari butun yurak-qon tomir tizimini shikastlaydi. Bu turdagi kasalliklar dunyo bo‘yicha hozirgi kunga qadar o‘limning asosiy sababi bo‘lib qolmoqda [3].





Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko‘ra, barcha o‘lim holatlarining 46 foizi buyrak va siydik pufagi tizimi kasalliklari oqibatida kelib chiqadi. Yevropa mamlakatlarida buyrak va siydik kasalliklari yiliga 3,3 mln (38%) aholi o‘limiga sababchi bo‘ladi. Davlat statistika qo‘mitasi xabariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida 2018–yilning yanvar-iyun oylarida vafot etgan fuqarolarning 42,1% holatda aynan buyrak va siydik tizimi kasalliklari sabab qilib ko‘rsatilgan [4].


Hozirgi kunda buyrak va siydik tizimi kasalliklarini davolashda, kimyoviy usulda olingan dori vositalar qo‘llanib kelinmoqda. Bu dori vositalariga Torasemidum, Uralit-U, 5-HOK, Armideks, Nitroksolin-50, Siprinol va boshqalarni misol qilish mumkin. Lekin, buyrak va siydik tizimi kasalliklarini davolashda qo‘llaniladigan nosintetik dori vositalari kam va adabiyotlarda keltirilmagan [5].

Shuning uchun buyrak va siydik tizimi kasalliklarida qo‘llanilib kelayotgan sintetik dori vositalarini kimyoviy tarkibi va xususiyatlarini o‘rganish, tabiiy dori vositalarni tavsiya qilish amaliy ahamiyatga ega [6]. Quyidagi jadvalda buyrak kasalliklari ayrim sintetik dori vositalarining kimyoviy tarkibi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

1-jadval

Buyrak va siydik tizimi kasalliklarini davolashda qo‘llaniladigan kimyoviy dori vositalar

Dori nomi	Kimyoviy nomi	Kimyoviy formulasi
Torasimed (Torasemidum)	1-[4-(3-Metilfenil)aminopiridin-3-il]sulfonil-3-propan-2-ilmochevina	
Uralit-U	Kaliy-natriy gidrositrat (geksakaliy -geksanatriy-trigidro-pentasitrat)	
5-HOK	5-nitro-8-hinolinol	
Armimideks	1-etilenpirrolidin-2-on	

Nitroksolin-50	Nitroxoline	Magniy karbonat, polivinilpirrolidon, plasdon K, kremniy dioksid, talk, titan dioksid, rang beruvchi moddalar
Siprinol	Iprofloksasina gidrohlorid monogidrat	

Nojo‘ya tasiri: Biz yuqorida keltirib o‘tgan sintetik dori vositalar yani Torasimed: Homilador ayollarda torasemidni qo‘llash bo‘yicha nazorat ostida tadqiqotlar o‘tkazilmagan, homiladorlik paytida preparatni qo‘llash tavsiya etilmaydi.Torasemid teratogen ta’sirga va fetotoksiklikka ega emas, u platsenta to‘sig‘idan o‘tib, homilada suv va elektrolitlar almashinuvining buzilishi va trombotsitopeniyani keltirib chiqaradi.Yurak qon tomirlari tizimi tomonidan suv va elektrolit muozanati buzilishlari (gipovolemiya, gipokaliemiya, giponatriemiya); metabolik alkalozni kuchayishi. Kuchli siydik chiqarilishii natijasidagi suyuqlik va elektrolitlarni ahamiyatli darajada yo‘qotilishlarida arterial gipotenziya, ongni chalkashishi, trombozlar, yurak ritmini buzilishi, stenokardiya, o‘tkir miokard infarkti, sinkope rivojlanishi bilan kardial va serebral ishemiya kuzatilishi mumkin. Uralit-U: Markaziy nerv tizimi tomonidan: bosh og‘rig‘i, bosh aylanishi, kuchli toliqish, mushaklarni tirishishi. Ovqat hazm qilish tizimi tomonidan: qabziyat, anoreksiya, ko‘ngil aynishi, qusish, me’dada og‘riq, diareya, jigarning ayrim fermentlarini (xususan, gamma-glutamiltranspeptidaza) oshishi, pankreatit. [7] 5-NOK: 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarda preparatni qobiq bilan qoplangan tabletkalar shaklida qo‘llash tavsiya qilinmaydi. Ishlab chiqarilish joyi:Rossiya Federatsiyasi Nitroksolinga yoki preparatning har qanday komponentiga, shuningdek xinolinlarga yuqori sezuvchanlik; og‘ir jigar yoki buyrak yetishmovchiligida qo‘llash mumkin emas. Siydik chiqarish tizimi tomonidan: siydik chiqarilishini buzilishlari bo‘lgan pasiyentlarda (masalan, prostata bezining gipertrofiyasi) siydikni jadal ajralishi, siydikni tutilishiga va qovuqni haddan tashqari kengayishiga olib kelishi mumkin; qonda kreatinin va mochevinani oshishi. Armimideks: moddalar almashinuvi tomonidan: qonda siydik kislotasi, glyukoza, lipidlar (trigliseridlar, xolesterin) miqdorini oshishi. Nitroksolin: qon tizimi tomonidan: trombositlar, eritrositlar, va yoki leykositlar sonini kamayishi. Sprinol: immun tizimi tomonidan: allergik reaksiyalar, shu jumladan toshmalar, qichishish, ekzantema, fotosezuvchanlik, og‘ir teri reaksiyalari. Boshqalar: umumiy holsizlik, og‘izni qurishi, paresteziyalar, ko‘rishni buzilishi, quloqda shovqin, eshitishi pasayishi, eshitishni yo‘qolishi.

Tabiiy yordamchi moddalar sintetiklarga nisbatan o‘zining zararsizligi yuqori biologik xafsizligi bilan bir muncha ustunlikka ega. Yuqoridagi jadvalda keltirilgan ayrim dori vositalari og‘ir metal tuzlari yoki sintez yo‘li bilan olingan bo‘lib, olingan preparatlarning kimyoviy nomi va formulasi keltirilgan. Ma’lumki sintetik vositalar sintetik va yarimsintetik kelib chiqishga ega bo‘lishi mumkin. Farmatsiyaning ko‘p asrli tarixi mobaynida sintetik moddalar farmakologik va kimyoviy jixatdan indiferent moddalar hisoblangan [8].

Hozirgi kunda zamonaviy tibbiy davo choralariga qo‘shimcha shaklda tabiiy vositalardan ham foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki, bu dorivor o‘simliklar asosida olingan bo‘lib, organizmda allergiya chaqirmasligi, nojo‘ya tasirining kamligi va terapevtik samaradorligi bilan ahamiyatga ega. Bugungi kunda xalq tabobatida, tavsiya qilingan. *Shifoi bosim, Nishifo, Asdavo, Askalsiy, Antivir 101* biologik faol BFQni buyrak va siydik kasalliklarini davolashda samarali ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasi SSV da ro‘yhatga olingan, tartibli ravishda iste’mol qilish buyrak va siydik tizimi kasalliklarini davolashda yaxshi samara berib kelmoqda [9].

XULOSA

Yuqorida tahlil qilingan xulosa qilish mumkinki, bo‘tako‘z va bo‘ymadaron tabiiy dorivor o‘simliklar asosida olingan BFQ organizm bilan biologik muvofiqligi, salbiy tasirga ega emasligi kabi omillar, BFQ sintetik kimyoviy vositalarga nisbatan yaqqol afzalliklarga ega, biologik faol oziq-ovqat qo‘shilmalari ishlab chiqish muhim amaliy ahmiyat kasb etadi. Dori moddalarining kimyoviy tuzilishi bilan biologik ta’siri faolligi orasidagi qonuniy bog‘lanishlarni o‘rganib, boshqa yo‘nalishlar maqsadlar asosida yangi dori vositalarini topish va ularni tibbiyotda tatbq etish bilan shug‘ullanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. I.R.Asqarov. Sirli tabobat// T.: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi. -2021. -S.1010.
2. И.Р Аскаров // Табобат қомуси. Мумтоз сўз. Тошкент-2019. –Б.1590.
3. И.Маматова, М.Мамарахмонов, И.Р Аскаров // Изучение химического состава пищевой добавки «Мажмуи Рахмоний» физико-химическими методами исследования. Universum: химия и биология. 2020. №1 (67). –С. 45-45.
4. M.M.Mo‘minjonov // Qovunning shifobaxsh xususiyatlari. Xalq tabobati jurnali. 2021 y. T. №7. B.27.

5. Атлас ареалов и ресурсов лекарственных растений. – М.: ГУГК, 1983. – 340
6. Ботанико-фармакогностический словарь // Под ред. Блиновой К.Ф. – М.: Высшая школа, 1990. – 272 с.
7. Гаммерман А.Ф., Кадаев Г.Н., Янценко-Хмелевич А.А. Лекарственные растения (растения-целители). – М.: Высшая школа, 1984. – 400 с.
8. Гесь Д.К. Горбач Н.В. Лекарственные растения и их применение. – Минск: Наука и техника, 1977. – 552 с.
9. Государственная Фармакопея СССР // 11-е изд. – М.: Медицина, 1989. – 398 с.
10. Хожиматов К.Х., Хожиматов О.К. Собиров У.А. Сборник правил пользования объектами лекарственных, пищевых и технических растений. Ташкент: «Янги аср авлоди», 2009. – 171 с.
11.Акопов И.Э. Важнейшие отечественные лекарственные растения и их применение. – Ташкент: Медицина, 1990. – 446 с.
12. www.ipni.org
13. https://www.greeninfo.ru
14. http://lektrava.ru
14. http://manual-plants.com.ua/section/opisanie-rasteniy
15. http://pharmspravka.ru
16. http://www.fito.nnov.ru
17. http://n-retsept.ru
18. www.plantarium.ru
19. http://www.plantsoftheworldonline.org/taxon/urn:lsid:ipni.org:names:190310-1
19. http://www.theplantlist.org/
20. http://www.u-lekar.ru/
21. http://100trav.su/
22. https://lektrava.ru/encyclopedia/vasilek-siniy/
23. http://www.fito.nnov.ru/special/glycozides/flavo/centaurea_cyanus/
24.http://www.floraprice.ru/articles/sad/leto-lug-v-cvetax-i-vasilki-v-buketax%85.html
25. https://www.webapteka.ru/drugbase/name63917.html,